

## **Yuridik shaxs korporativ plastik kartasiga xizmat ko'rsatish haqida SHARTNOMA**

20\_\_ yil " \_\_ " \_\_\_\_\_ № \_\_\_\_\_ shahri

"Trastbank" xususiy aksiyadorlik bankining \_\_\_\_\_ filiali (keyingi o'rinlarda – Bank) boshqaruvchisi \_\_\_\_\_ Nizom va Ishonchnoma asosida faoliyat yuritib, bir tomondan, va yuridik shaxs \_\_\_\_\_ (keyingi o'rinlarda – Mijoz) rahbari \_\_\_\_\_ Ustav (Nizom) asosida faoliyat yuritib, ikkinchi tomondan, mazkur Shartnomani quyidagilar haqida tuzdik.

### **1-§. Shartnoma predmeti**

1. Mazkur Shartnoma korporativ plastik karta yordamida bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmat va sotib olingan tovarlar yuzasidan hisob-kitoblarni amalga oshirish jarayonida Bank tomonidan xizmat ko'rsatishda Bank va Mijoz o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tartibga soladi.

2. Mijoz, talabnomada ko'rsatilgan va korporativ plastik kartadan foydalanuvchi deb nomlanadigan, o'z xodimiga korporativ plastik kartadan bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmat va sotib olingan tovar haqini to'lashda to'lov vositasi sifatida foydalanish vakolatini beradi.

### **2-§. Umumiy qoidalar**

3. Mazkur Shartnoma korporativ plastik karta maxsus hisobvarag'i, korporativ plastik karta va undan foydalanuvchiga nisbatan qo'llaniladi hamda Bank va Mijoz majburiyatlarini belgilaydi.

4. Korporativ plastik kartani olish uchun Mijoz Bankda milliy valyutada talab qilib olinguncha asosiy depozit hisobvarag'iga ega bo'lishi kerak.

5. Bank Mijoz tomonidan taqdim qilingan talabnomaga asosan korporativ plastik kartani faqat undan foydalanuvchi xodim nomiga muomalaga chiqarib, uni PIN-kod va korporativ plastik kartadan foydalanish qoidalari bilan birga Mijozning xodimiga taqdim qiladi.

6. Korporativ plastik kartadan faqat naqdsiz hisob-kitoblar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi hududida foydalanish mumkin.

7. Korporativ plastik kartadan ish xaqi va ijtimoiy xarakterdagi boshqa to'lovlarni, shuningdek naqd pulni to'lash maqsadida foydalanish man etiladi.

8. Korporativ plastik karta maxsus hisobvarag'idagi mablag'ga foiz hisoblanmaydi.

9. Korporativ plastik karta maxsus hisobvarag'i korporativ plastik kartadan foydalanuvchi Mijoz xodimining nomiga bepul ochiladi.

10. Bank korporativ plastik kartani muomalaga chiqargani (emissiyasi) uchun Mijozdan Bank tarifiga asosan haq undiradi.

11. Korporativ plastik karta muomalaga chiqarilishida Mijoz ushbu kartadan foydalanuvchi xodimining korporativ plastik karta maxsus hisobvarag'iga zarur miqdorda mablag' o'tkazadi.

12. Korporativ plastik kartaning yopilishi Mijozning yozma arizasi asosida amalga oshiriladi.

13. Bankning to'lovni qaytarish bo'yicha talablari Mijozdan xarajat to'langanligi haqida tasdiqnomaga olingandan so'ng ko'rib chiqiladi.

14. Bank, Mijoz tomonidan korporativ plastik karta yo'qotilganligi haqida yozma ariza taqdim etilgan kundan boshlab 15 (o'n besh) bank ish kuni ichida, Bank tarifida belgilangan miqdorda jarima to'langandan so'ng, yo'qotilgan korporativ plastik karta o'rniga boshqasini beradi.

15. Korporativ plastik karta maxsus hisobvarag'iga xizmat ko'rsatish debetli sxemasi bo'yicha amalga oshiriladi.

16. Mazkur Shartnoma bo'yicha barcha hisob-kitoblar milliy valyutada yuritiladi.

17. Korporativ plastik karta, amal qilish muddati davomida Bankning mulki hisoblanadi, u amal qilish muddati tugagandan so'ng yoki almashtirilganda yoxud Bankning rasmiy talabi

bo'yicha Bankka qaytarilishi lozim.

### 3-§. Tomonlarning huquq va majburiyatlari

18. Bank quyidagi huquqlarga ega:

a) Mijoz yoki uning korporativ plastik kartadan foydalanuvchi xodimi tomonidan ushbu Shartnoma shartlari va korporativ plastik kartadan foydalanish qoidalarini buzilganda korporativ plastik kartaning amal qilishini to'xtatish;

b) Mijozdan barcha qarzlarni Bankka to'lashni talab etish;

v) Mijoz yoki uning korporativ plastik kartadan foydalanuvchi xodimi tomonidan ushbu Shartnoma shartlari va korporativ plastik kartadan foydalanish qoidalarini buzilishi natijasida Bank qilgan barcha xarajatlarni so'zsiz undirish;

g) Bank tariflari va korporativ plastik kartadan foydalanish qoidalariga qo'shimcha va/yoki o'zgartirishlarni, ular kuchga kiritilishidan bir oy oldin bu haqda tegishli axborotni, shuningdek ushbu Shartnoma yuzasidan qo'shimcha bitim loyihasini [www.trustbank.uz](http://www.trustbank.uz) veb-sayti va Bank filiali binosida joylashtirish orqali Mijozni ogohlantirib, kiritish. Agar ushbu qo'shimcha va/yoki o'zgartirishlar kuchga kiritiladigan sanagacha Mijoz tomonidan imzolangan qo'shimcha bitim yoki uni imzolashdan bosh tortganligi haqida yozma xabar Bankka taqdim qilinmasa, bu hol O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 366-moddasiga muvofiq Bank tariflari va korporativ plastik kartadan foydalanish qoidalariga kiritilayotgan qo'shimchalar va/yoki o'zgartirishlarga Mijozning to'la roziligini bildiradi.

19. Bank quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:

a) Mijozning korporativ plastik karta maxsus hisobvarag'ini korporativ plastik karta bo'yicha amalga oshirilgan barcha tranzaksiyalar summasiga debetlash;

b) Mijozning korporativ plastik kartadan foydalanuvchi xodimi korporativ plastik karta maxsus hisobvarag'ini, to'lov topshiriqnomasini taqdim etilgan taqdirda, naqd pulsiz o'tkazmalar shaklidagi barcha pul tushumlari summasiga kreditlash;

v) Mijozga uning korporativ plastik kartadan foydalanuvchi xodimini korporativ plastik karta maxsus hisobvarag'i bo'yicha belgilangan tartibda ko'chirma berish;

g) Mijozni amaldagi Bank tariflari bilan tanishtirish;

d) Mijozdan korporativ plastik kartaning yo'qotilganligi to'g'risida ariza olingandan so'ng 48 soat ichida ushbu plastik karta bo'yicha operatsiyalar amalga oshirilishini to'xtatish;

e) Bank tariflariga, shuningdek korporativ plastik karta bo'yicha xizmatni taqdim etish qoidalariga qo'shimcha va/yoki o'zgartirishlar kiritilganda, ular kuchga kiritilishidan bir oy oldin bu haqda tegishli axborotni, shuningdek ushbu Shartnoma yuzasidan qo'shimcha bitim loyihasini [www.trustbank.uz](http://www.trustbank.uz) veb-sayti va Bank filiali binosida joylashtirish orqali Mijozga xabar berish;

yo) mazkur Shartnoma bekor qilinganda Mijozga korporativ plastik karta maxsus hisobvarag'ida qolgan mablag'ni, uning yozma arizasiga muvofiq, qaytarish.

20. Mijoz quyidagi huquqlarga ega:

a) korporativ plastik karta maxsus hisobvarag'ini naqd pulsiz o'tkazish yo'li bilan to'ldirish;

b) Bankdan korporativ plastik karta maxsus hisobvarag'i bo'yicha ko'chirma so'rash;

v) PIN-kodni, belgilangan tartibda, almashtirish.

21. Mijoz o'z zimmasiga quyidagi majburiyatlarni oladi:

a) ushbu Shartnoma talablari va korporativ plastik kartadan foydalanish qoidalarini bajarish, shuningdek ularning korporativ plastik kartadan foydalanuvchi xodimi tomonidan bajarilishini ta'minlash;

b) u yoki uning korporativ plastik kartadan foydalanuvchi xodimi tomonidan ushbu Shartnoma shartlari va korporativ plastik kartadan foydalanish qoidalarini buzilishi bilan bog'liq barcha xarajatlarni to'lash;

v) korporativ plastik kartadan foydalanuvchi xodimini korporativ plastik kartadan foydalanish qoidalarini bilan tanishtirish;

g) Bank tomonidan Mijoz uchun muomalaga chiqarilgan korporativ plastik kartalar va Pin-kodlarning xavfsiz yetkazilishi va ulardan foydalanuvchi xodimlariga shaxsan topshirilishini

ta'minlash;

d) Bankka uning talabi bo'yicha korporativ plastik kartadan foydalanuvchi xodimlari haqida qo'shimcha ma'lumotlar taqdim qilish;

e) korporativ plastik kartadan u biriktirilgan xodim tomonidan, korporativ plastik karta maxsus hisobvarag'idagi mablag' qoldig'i doirasida, unda ko'rsatilgan muddat davomida foydalanilishini ta'minlash;

yo) korporativ plastik kartadan foydalanuvchi xodimining yashash joyi yoki pasport ma'lumotlari o'zgarganda zudlik bilan Bankka xabar berish;

j) korporativ plastik karta yo'qotilganligi to'g'risida og'zaki xabar berilgandan so'ng, 24 soat ichida uning yo'qotilganligini yozma ravishda ham tasdiqlash. Yo'qotilgan korporativ plastik karta topilgan taqdirda, uni ishlatmasdan darhol Bankka qaytarish;

z) korporativ plastik kartaga ehtiyoj qolmaganda yoki korporativ plastik kartadan foydalanuvchi xodimi ishdan bo'shatilganda, ushbu kartani Bankka topshirish va uning maxsus hisobvarag'ini yopish;

i) korporativ plastik karta orqali o'tkaziladigan to'lov qiymatidan Bank tariflariga muvofiq vositachilik haqi to'lash.

#### **4-§. Tomonlarning javobgarligi**

22. Mazkur Shartnomada ko'zda tutilmagan holatlarda tomonlarning javobgarligi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

23. Bank quyidagilar uchun javobgar hisoblanmaydi:

a) fors-major tufayli Bankning nazoratida bo'lmagan holatda o'z majburiyatlarini bajarish imkoniyati bo'lmaganida;

b) Mijoz korporativ plastik karta yo'qotilganligi yoki uning PIN-kodi uchinchi shaxsga ma'lum ekanligiga gumon qilayotganligi to'g'risida Bankka yozma ravishda xabar bergandan so'ng, ushbu karta 48 soat davomida uchinchi shaxs tomonidan ishlatilgan taqdirda, Mijoz ko'radigan har qanday moliyaviy zarar uchun.

24. Mijoz korporativ plastik karta yo'qotilganligi to'g'risida Bankka yozma ravishda xabar berganidan 48 soat o'tgandan so'ng, uchinchi shaxs tomonidan ushbu karta orqali amalga oshirilgan barcha operatsiyalar uchun javobgarlikni Bank o'z zimmasiga oladi.

25. Mijoz quyidagilar uchun javobgar hisoblanadi:

a) u yoki uning korporativ plastik kartadan foydalanuvchi xodimi tomonidan ushbu Shartnoma shartlari va korporativ plastik kartadan foydalanish qoidalari buzilganda;

b) PIN-kod haqida ma'lumotdan boshqa shaxs ruxsatsiz foydalangani hamda Bankka yozma ravishda PIN-kodning ochilishi haqida xabar berilishigacha bo'lgan barcha tranzaksiyalar uchun;

v) u Bankka korporativ plastik kartani yopish bo'yicha ariza bilan murojaat qilganda, ushbu karta Bankka qaytarilgunga qadar va mazkur karta orqali amalga oshirilgan barcha tranzaksiyalar kelib tushmagunga qadar;

g) ushbu Shartnoma bekor qilinib, korporativ plastik karta o'z vaqtida Bankka topshirilmagan taqdirda, mazkur Shartnomaning bekor qilinishigacha va undan keyingi barcha tranzaksiyalar uchun;

d) korporativ plastik karta maxsus hisobvarag'i bo'yicha operatsiyalarning, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari asosida, o'z vaqtida va to'g'ri o'tkazilishi uchun.

26. Tomonlarning biri ushbu Shartnomaning shartlarini bajarishda O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga amal qilmasa, ikkinchi tomon buning uchun javobgar bo'lmaydi.

#### **5-§. Shartnomaning amal qilish muddati**

27. Mazkur Shartnomaning amal qilish muddati, tomonlardan biri uni bekor qilish haqida o'z xohishini yozma tarzda ma'lum qilmagunga qadar, cheklanmagan hisoblanadi.

28. Mazkur Shartnoma uni tomonlar imzolagan paytdan boshlab kuchga kiradi.

## 6-§. Shartnomaga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish

29. Shartnomaga kiritiladigan barcha qo‘shimcha va o‘zgartirishlar tomonlar o‘rtasida yozma ravishda kelishilgan bo‘lishi lozim, ushbu Shartnoma 18-bandining “g” kichik bandiga muvofiq kiritiladigan qo‘shimcha va/yoki o‘zgartirishlar bundan mustasno

## 7-§. Nizolarni hal qilish

30. Barcha kelishmovchilik va nizolarni tomonlar muzokara yo‘li bilan hal etadi. Muzakora natijasida tomonlar o‘zaro kelishuvga erisha olmagan taqdirda, nizo O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibida hal qilinadi.

## 8-§. Shartnomani bekor qilish

31. Ushbu Shartnoma tomonlardan birining tashabbusi bo‘yicha, Mijoz Bank u uchun muomalaga chiqargan barcha korporativ plastik kartalarni qaytargandan so‘ng, bekor qilinadi. Mazkur Shartnoma bekor qilgan taqdirda Mijoz uchun muomalaga chiqarilgan barcha korporativ plastik kartalar o‘z kuchini yo‘qotadi.

32. Ushbu Shartnomaning amal qilish muddati tugasa, tomonlar o‘z majburiyatlarini bajargandan keyingina, u o‘z kuchini yo‘qotadi.

33. Ushbu Shartnoma imzolangan sanadan boshlab tomonlar o‘rtasida korporativ plastik kartalarga xizmat ko‘rsatishga oid oldin imzolagan barcha shartnoma va bitimlar o‘z kuchini yo‘qotadi.

## 9-§. Yakuniy qoidalar

34. Mazkur Shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo‘lgan ikki nus’hada tuzildi, uning bir nus’hasi Bankda, ikkinchi nus’hasi Mijozda saqlanadi.

35. Ushbu Shartnomaga muvofiq tarzda yoki unga bog‘liq holda yuborilgan barcha xat va xabarnomalar yozma tarzda rasmiylashtirilgan bo‘lishi shart va ular tomonlarning quyida ko‘rsatilgan manzillari bo‘yicha buyurtma xat orqali yuborilgan yoki shaxsan yetkazilgan hamda ularni olganlik to‘g‘risida tasdiqnoma mavjud bo‘lsa, ular belgilangan tartibda taqdim etilgan hisoblanadi.

## 10-§. Tomonlarning pochta manzili va rekvizitlari

Bank:	Mijoz:
Manzili: _____	Manzili: _____
Tel.: _____ Faks: _____	Tel.: _____ Faks: _____
Bank kodi: _____	Bank _____
Bank hisobvarag‘i: _____	So‘m hisobvarag‘i _____
STIR: _____	Bank kodi: _____
Boshqaruvchi: _____	STIR: _____
Muhr o‘rni	Rahbar: _____
	Muhr o‘rni